

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik mexanizmini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashtirish sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji.....	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strategiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeiini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 001.8:94(571.3)

BUYUK IPAK YO'LIDA ILM-FAN VA MADANIY MULOQOT RIVOJI

РАЗВИТИЕ НАУКИ И КУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ ВДОЛЬ ВЕЛИКОГО
ШЕЛКОВОГО ПУТИTHE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND CULTURAL COMMUNICATION ALONG THE
GREAT SILK ROADAbbosova Shohida Turdaliyevna 

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

Maqolada Buyuk Ipak yo'lining jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o'rni va uning ilm-fan, madaniyat hamda ma'naviyat taraqqiyotiga ta'siri yoritiladi. Tadqiqotda Ipak yo'li orqali Sharq va G'arb o'rtasida bilim va g'oyalar almashinuvi jarayoni tahlil qilingan. Shuningdek, Xorazmiy, Beruniy, Ulug'bek va Ibn Sino kabi allomalar merosining xalqaro ahamiyati ko'rsatilgan.

Аннотация

В статье раскрывается роль Великого Шёлкового пути в истории мировой цивилизации и его влияние на развитие науки, культуры и духовности. В исследовании анализируется процесс обмена знаниями и идеями между Востоком и Западом через Шёлковый путь. Также показано международное значение научного наследия таких учёных, как аль-Хорезми, Беруни, Улугбек и Ибн Сина.

Abstract

The article reveals the role of the Great Silk Road in the history of world civilization and its influence on the development of science, culture, and spirituality. The study analyzes the process of knowledge and idea exchange between the East and the West through the Silk Road. It also highlights the international significance of the scientific heritage of such scholars as Al-Khwarizmi, Al-Biruni, Ulughbek, and Ibn Sina.

Kalit so'zlar: Buyuk Ipak yo'li, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, matematika, astronomiya, sivilizatsiya, madaniy almashinuv, Sharq va G'arb.

Ключевые слова: Великий Шёлковый путь, наука, культура, медицина, математика, астрономия, цивилизация, культурный обмен, Восток и Запад.

Key words: Great Silk Road, science, culture, medicine, mathematics, astronomy, civilization, cultural exchange, East and West.

KIRISH

Buyuk Ipak yo'li jahon tarixida Sharq va G'arbni bog'lovchi yirik savdo va madaniy yo'ldir. U orqali nafaqat iqtisodiy muzokaralar olib borildi, balki bilim, ilm-fan, madaniyat almashishga yo'l ochildi. Natijada turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro ta'sir kuchayib, insoniyatning umumiy inqilobiga katta hissa qo'shildi. Iqtisodiy nuqtai nazardan Xitoydan ipak, choy, chinini, qog'oz ishlab chiqarish sirlari Ipak yo'li orqali, Hindistondan tibbiyot sohasidagi yangiliklar, O'rta Osiyodan astronomiya va aniq fanlar sohasidagi kashfiyotlar, Yevropa davlatlaridan metall ishlab chiqarish va mexanika sohasidagi kashfiyotlar [1]. Shu bilan birga, Ipak yo'li ma'naviy-madaniy muloqot maydoni sifatida ham katta ahamiyatga ega edi. Buddaviylik, islom va nasroniylik kabi dinlar bu yo'l orqali turli mintaqalarga tarqalib, ular san'at va me'morchilikdagi uslublarni birlashtirgan. Masalan, Samarqand va Buxoro madrasalarida Sharq va G'arb olimlari uchrashib, tajriba almashgan bo'lsa, Xitoyda O'rta Osiyodan olib kelingan falsafiy g'oyalar o'z ta'sirini ko'rsatdi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilm-fan sohasida aynan shu yo'l orqali hind raqamlari va nol tushunchasi Yevropa mamlakatlariga kirib borgan. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning algebra haqidagi asarlari G'arb olamida katta shuhrat qozongan bo'lsa, Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqandda qurdirilgan rasadxona jahon astronomiya fanida ulkan iz qoldirdi. Mirzo Ulug'bek rahbarligida tuzilgan "Ziji Jadidi Ko'ragoniy" asarida 1018 ta yulduzning aniq koordinatalari keltirilgan bo'lib, bu natijalar Tixo

Brage va Nikolay Kopernikning kuzatuvlaridan ancha oldin amalga oshirilgan edi [3]. Demak, Buyuk Ipak yo'li nafaqat savdo aloqalari tizimi, balki ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning keng yoyilishi uchun ham ulkan tarixiy platforma sifatida namoyon bo'lgan. Uning orqali amalga oshirilgan ilmiy bilimlar, kashfiyotlar va madaniy g'oyalar insoniyat sivilizatsiyasi rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Buyuk Ipak yo'li faqat iqtisodiy almashinuv vositasi emas, balki turli xalqlar o'rtasida bilim, tajriba va madaniy qadriyatlar almashinuvi uchun muhim kanal vazifasini bajargan. Ushbu yo'ldan harakatlangan karvonlar bilan bir qatorda, olimlar, ziyolilar va sayyohlar ham safar qilganlar. Ular o'zlari bilan kitoblar, ilmiy asarlar, falsafiy g'oyalar va yangi kashfiyotlarni olib borganlar. Shu tariqa, astronomiya, matematika, tibbiyot, geografiya va falsafa sohalariga oid bilimlar bir mintaqadan boshqasiga tarqalgan [4]. Buxoro madrasalarida islom ilmi bilan bir qatorda tibbiyot va mantiq ham o'qitildi. Bu markazlarda turli mamlakatlardan kelgan olimlar uchrashib, tajriba almashishdi [5]. Shuningdek, Xorazmda faoliyat yuritgan Muhammad al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk allomalar o'z asarlari orqali jahon ilm-fani taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shganlar. Ularning ilmiy merosi Buyuk Ipak yo'li orqali Sharq va G'arb o'rtasida tarqalib, dastlab arab va fors tillariga, keyinchalik esa lotin tiliga tarjima qilingan. Bu esa o'rta asrlarda ilmiy tafakkurning xalqaro miqyosda rivojlanishiga xizmat qilgan [6]. Tibbiyot sohasida Buyuk Ipak yo'lining o'rni beqiyos bo'lgan. Mazkur yo'l orqali Hindistondan turli xil dori-darmonlar, shifobaxsh o'simliklar hamda tibbiy bilimlar Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga tarqalgan. Masalan, hind tabobatida qo'llanilgan ayrim shifobaxsh g'iyohlar Samarqand va Buxoro bozorlariga keltirilgan, u erdan esa Yevropaga eksport qilingan. Ibn Sinoning "Al-Qonun fi-t-tib" asari Ipak yo'li orqali Yevropaga kirib borib, yuz yillar davomida tibbiyot universitetlarida asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Bu asar nafaqat islom olamida, balki G'arbda ham tibbiyotning rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi [7]. Shu bilan birga, Xitoy tibbiyotining ayrim elementlari – akupunktura, massaj va g'iyohlar bilan davolash amaliyoti ham Ipak yo'li orqali G'arbgga kirib bordi. Bu esa tibbiy bilimlarning ko'p qirrali va xalqaro darajada boyishiga sabab bo'ldi [8]. Tibbiyotdagi bunday almashuv jarayonlari xalqaro hamkorlikning ilk namunasi sifatida tarixda alohida o'rin tutdi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Buyuk Ipak yo'li orqali matematika va astronomiya sohasidagi bilimlar ham keng tarqalgan. Hindistondan kelgan raqamlar tizimi, xususan, nol tizimi Markaziy Osiyo olimlari orqali Islom olamiga, keyin Yevropaga olib kelingan. Bu kashfiyot insoniyat sivilizatsiyasida hisob usullarini tubdan o'zgartirdi va yangi matematika ilmiy maktablarining paydo bo'lishiga olib keldi [9]. Muhammad al-Xorazmiyning "Al-jabr va al-muqobala" asari algebra fanining shakllanishida muhim o'rin tutdi. Uning asarlari 12-asrdan lotin tiliga tarjima qilinib Yevropada keng tarqalgan. "Algoritim" olimning ismidan kelib chiqqanligi buning yaqqol isbotidir [10]. Shu tariqa Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb fanlarining matematika va astronomiya sohasidagi o'zaro ta'sirini ta'minladi. Ipak yo'lining dunyo geografiyasining tiklanishida ham hissasi katta bo'lib, bu yo'l orqali ko'plab sayohatchilar, tadqiqotchilar turli mamlakatlarga sayohat qilib, o'z asarlarini qoldirgan. Marko Polo Xitoy va O'rta Osiyoga qilgan sayohatlarida ko'plab geografik ma'lumotlarni yozib qoldirgan va uning sayohati Yevropada katta qiziqish uyg'otgan. Ibn Battuta Marokashdan Xitoygacha bo'lgan uzoq masofani bosib o'tgan va o'sha davr shaharlari, urf-odatlar va iqtisodiy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlarni qoldirgan [11]. Xitoylik sayyoh Syuan Tszan VII asrda Hindistonga qilgan sayohatlari haqida yozgan va buddizm tarixi va geografiyasiga oid bir qancha ma'lumotlar bergan [12]. Biroq, geografik bilimlardan tashqari, yangi texnologiyalar ham tarqalgan. Masalan, qog'oz ishlab chiqarish, kompaslar Xitoydan G'arbgga olib kelingan bo'lsa, Sharqqa Yevropa davlatlaridan yangi mexanik qurilmalar va navigatsiya vositalari kelgan. Bu jarayon geografik kashfiyotlar davrini tezlashtirdi va insoniyatning yangi hududlarni kashf etishiga yo'l ochgan [13]. Buyuk Ipak yo'li xalqlar o'rtasidagi madaniy muloqot va ma'naviy almashinuv jarayonini tezlashtirdi. Bu yo'l orqali turli xalqlarning san'ati, me'morchiligi, adabiyoti, dinlari bir-birini boyitib bordi. Ipak yo'li orqali buddizm Xitoydan Markaziy Osiyo va hatto Yevropaga tarqaldi. Sayohatchi Syuan Tszan buddizmi Hindistondan Xitoyga tarqalishida, katta rol o'ynagan. Islom dini O'rta Osiyodan Xitoy va Hindistonga, shu bilan birga Yevropaning ba'zi hududlariga etib borgan. Bu orqali Sharqqa xristianlikning turli tarmoqlari (nestorianlik, katoliklik) kirib kelgan [14]. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar Ipak yo'li bo'ylab turli me'morchilik uslublari uyg'unlashgan madaniyat markazlari bo'lgan. Masalan, Sharq me'morchiligining gumbazlari, naqshlari va bezaklari Yevropa uslubidagi elementlar bilan birlashtirilib, yangi shakllar yaratildi [15]. Xitoy ipak bezaklari, Markaziy Osiyo keramikasi va Yevropaning gotika uslubi bir-biriga ta'sir ko'rsatgan. Ipak yo'li bilan Navoiy, Firdavsiy, Nizomiy,

ILMIY AXBOROT

Jomiy asarlari turli sohalarga tarjima qilingan va keng tarqalgan. Bu asarlar Sharq va G'arb adabiy merosini boyitishga xizmat qildi. Falsafa sohasida Abu Nasr Forobiy va Ibn Rushd asarlari orqali aristotelizm G'arbda qayta tiklanish davrida katta ta'sir ko'rsatdi [16].

XULOSA

Bir so'z bilan aytganda, Buyuk Ipak yo'li tarixda faqat savdo yo'li bo'lib qolmay, balki turli halqlar ortasida ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat tarqalishida ham beqiyos ahamiyat kasb etdi. Bu yo'l orqali;

- Hindistondan nol tushunchasa va raqamlar tizimi
- Markaziy Osiyodan algebra va astronomiya ilmi
- Xitoydan q'og'oz, kompas va ipak
- Yevropa davlatlaridan yangi mexanik qurilmalar tarqaldi.

Tibbiyot sohasida Ibn Sinoning "Al-qonun fi-t-tib" asari asrlar davomida Sharq va G'arbda tibbiy bilimlarning asosiy manbai bo'lib xizmat qildi. Matematikada Xorazmiy, Astronomiyada Ulug'bek ilmiy merosi, geoqrafiyada Marko Polo va Ibn Battuta asarlari insoniyat sivilizatsiyasiga ulkan hissa q'o'shdi. Shu tariqa Sharq va G'arbni bog'lovchi ma'naviy ko'priklarni bo'lgan – Buyuk Ipak yo'li insoniyat tarixi va taraqqiyotidagi asosiy ustunlardan biri sifatida azaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Litvinsky B.A. *The Silk Road and Religions*. – UNESCO, 1999.
2. Ulug'bek M. *Zijji Jadidi Ko'ragoniy*. – Toshkent, Fan, 1994.
3. Бартольд В.В. *История культурной жизни Туркестана*. – Москва, 1963.
4. Массон М.Е. *Караванные пути Средней Азии*. – Ташкент, 1971.
5. Abu Rayhon Beruniy. *Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar*. – Toshkent: Fan, 1968.
6. Litvinsky B.A. *The Silk Road and Religions*. – UNESCO, 1999.
7. Ибн Сино. *Канон врачебной науки*. – Душанбе, 1980.
8. Needham J. *Science and Civilization in China*. – Cambridge University Press, 1974.
9. Панкратова А.М. *История математики в Средней Азии*. – Москва, 1965.
10. Al-Khwarizmi, M. *Al-jabr wa'l-muqabala*. – Oxford University Press, 1985.
11. Ibn Battuta. *Rihla (Travels)*. – Princeton University Press, 1994.1
12. Beal, S. *Si-Yu-Ki: Buddhist Records of the Western World by Hiuen Tsiang (Xuanzang)*. London, 1884.
13. Needham J. *Science and Civilization in China*. – Cambridge University Press, 1974.
14. Litvinsky B.A. *The Silk Road and Religions*. – UNESCO, 1999.
15. Хакимов З. *Самарканд – жемчужина Востока*. – Тошкент, 2005.
16. Bertels E.E. *Навоий и персидская литература*. – Москва, 1965.